

**Kreditning to'liq qiymati:**

\_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) foiz  
(miqdori) (miqdor so'z bilan)

\_\_\_\_\_ - sonli **KREDIT SHARTNOMASI**  
(raqami)

\_\_\_\_\_ shahar \_\_\_\_\_ .20\_\_ -yil  
(joyi) (sana)

Bir tarafdin AT "Aloqabank" (bundan buyon matnda "**Kreditor**" deb yuritiladi)  
nomidan 20\_\_-yil \_\_\_\_ - \_\_\_\_dagi \_\_\_\_\_ - sonli ishonchnoma asosida harakat qiluvchi  
(sana) (raqami)

AT "Aloqabank" \_\_\_\_\_ direktori \_\_\_\_\_, ikkinchi  
(HKXKM/KXKM nomi) (F.I.Sh.)  
tarafdin jismoniy shaxs \_\_\_\_\_ (bundan buyon matnda  
(qarzdorning F.I.Sh.)

"**Qarzdor**" deb yuritiladi) birgalikda "**Taraflar**" deb ataluvchilar, ushbu Kredit  
shartnomasini (bundan buyon matnda "**Shartnoma**" deb yuritiladi) quyidagilar haqida  
tuzdilar:

## I. TUSHUNCHALAR

1.1. Shartnomada quyidagi tushunchalardan foydalaniladi:

**Kredit obyekti** – ajratiladigan kredit mablag'lari hisobiga xarid qilinadigan tovar  
(mahsulot) va/yoki ko'rsatiladigan xizmatlar.

**Garov obyekti** – kredit ta'minoti sifatida garovga taqdim qilinadigan mulklar.

## II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. **Kreditor Qarzdorga** ushbu Shartnomada ko'zda tutilgan shartlarda pul  
summasini (mablag'ini) (bundan buyon matnda "**Kredit**" deb yuritiladi) ajratish  
majburiyatini, **Qarzdor** esa ajratilgan kredit va unga hisoblangan foiz summalarini  
Shartnomaning **1-ilovasi** bo'lgan kreditni qaytarish jadvalida (bundan buyon matnda  
"**Jadval**" deb yuritiladi) ko'zda tutilgan muddatlarda qaytarish majburiyatini o'z zimmasiga  
oladi.

## III. ASOSIY SHARTLAR

3.1. Kredit summasi: \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) so'm.  
(summasi) (summa so'z bilan)

3.2. Kreditdan foydalanish muddati: \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) oy muddatga.  
(muddati) (muddat so'z bilan)

3.3. Asosiy qarz to'lovlari bo'yicha imtiyozli davr: dastlabki \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) oy  
(soni) (soni so'z bilan)

davomida.

3.4. Kreditni so'ndirishning oxirgi muddati: \_\_\_\_\_ .20\_\_ yil.  
(sana)

3.5. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi: yillik \_\_\_\_\_ ( \_\_\_\_\_ ) foiz.

Qarzdor \_\_\_\_\_  
(imzo)

1 bet 12 dan

3.6. Kreditdan foydalanganlik uchun foiz stavkasi turi Taraflarning kelishuviga ko'ra:

\_\_\_\_\_ .  
(o'zgaruvchi/o'zgarmas)

3.7. Kreditning asosiy summasi va foizlarini to'lash usuli taraflarning kelishuviga ko'ra: \_\_\_\_\_ .

(differensial/annuitet)

3.8. Kredit bo'yicha to'lovlarni to'lash har oyning \_\_\_\_\_ sanasigacha.

(to'lov sanasi)

3.9. Kreditning maqsadi: \_\_\_\_\_ .

(kredit maqsadi)

[Avtokredit va ipoteka kreditida: Oldi-sotdi shartnomasiga asosan umumiy qiymati \_\_\_\_\_  
(summasi)

(\_\_\_\_\_ ) so'm bo'lgan uy-joy/avtotransport vositasini **Qarzdorning** o'z hisobidan  
(summa so'z bilan)

\_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm (uy-joy/avtotransport vositasi umumiy narxining  
(summasi) (summa so'z bilan)

\_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) foizi) to'lab, qolgan qismini kredit hisobidan to'lagan holda sotib olish uchun]  
(ulushi) (ulushi so'z bilan)

3.10. Kreditning obyekti: \_\_\_\_\_ .

(kredit obyekti)

3.11. Kreditning to'liq qiymati \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm foizni

(summasi) (summa so'z bilan)

tashkil qiladi va u quyidagi to'lovlarni hisobga olib hisoblanadi:

a) Kreditning asosiy qarzi: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_ tiyin;  
(summasi) (summa so'z bilan)

b) foizlar bo'yicha to'lovlar: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_ tiyin;  
(summasi) (summa so'z bilan)

d) sug'urta to'lovlari: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_ tiyin;  
(summasi) (summa so'z bilan)

e) garov mulkini baholash bo'yicha to'lovlar: \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_ tiyin;  
(summasi) (summa so'z bilan)

f) Adliya vazirligida 2018-yil 2-iyulda 3030-son bilan ro'yxatga olingan "Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risida"gi Nizomning 1-ilovasiga asosan boshqa to'lovlar – \_\_\_\_\_ (\_\_\_\_\_ ) so'm, \_\_\_ tiyin.  
(summasi) (summa so'z bilan)

#### IV. UMUMIY QOIDALAR

4.1. Kredit Shartnomada ko'rsatilgan shartlar asosida **Kreditor** tomonidan **Qarzdorga** kredit obyekti sotib olish uchun ishlab chiqaruvchi yoki realizatsiya qiluvchi shaxsning hisobvarag'iga pul o'tkazish yo'li bilan (naqd pulsiz hisob-kitob shaklida) ajratiladi va shu kundan boshlab kredit ajratilgan deb tan olinadi.

4.2. **Kreditor** Shartnomada nazarda tutilmagan maqsadlar uchun kredit summasini o'tkazish to'g'risidagi **Qarzdorning** to'lov hujjatlarini (arizasini) qabul qilmaydi, qabul qilingan to'lov hujjatlarini (arizalarni) ijrosiz **Qarzdorga** qaytaradi.

4.3. Kredit bo'yicha foizlar kredit ajratilgan kundan boshlab kreditning asosiy qarzni to'liq qaytarilgan kunigacha uning qoldiq summasiga nisbatan kunlik hisoblab boriladi. Foizlar yiliga 365 kunlik asosda hisoblanadi.

4.4. **Qarzdor** AT “Aloqabank”da va boshqa banklarda ochilgan o‘zining nomidagi barcha bank hisobvaraqlaridan Shartnoma bo‘yicha to‘lov majburiyatlarini amalga oshirish uchun zarur summani akseptsiz hisobdan chiqarish to‘g‘risida haqiqiy, chaqirib olinmaydigan va so‘zsiz talab qo‘yish huquqini **Kreditor**ga taqdim etadi.

4.5. **Kreditor** Shartnoma bo‘yicha hamma summalarni **Qarzdorning** barcha mol-mulkari (mulkiy huquqlari), elektron pullari va ta‘minotlar hisobidan undirib olishi mumkin.

4.6. Shartnoma bo‘yicha **Qarzdorga** ko‘rsatilgan va/yoki ko‘rsatilayotgan barcha bank xizmatlari uchun **Qarzdor** amaldagi Bank Tarifida nazarda tutilgan bank xizmat haqini **Kreditor**ga to‘laydi.

4.7. Yangi tahrirdagi tariflarni bankning rasmiy veb sayti (www.aloqabank.uz)da e‘lon qilinishi, **Qarzdorni** bu haqda xabardor qilingan deb hisoblash uchun yetarli bo‘ladi va uning shartlari Shartnoma Taraflari uchun majburiy hisoblanadi.

4.8. **Qarzdor** foydalanilmagan kreditdan voz kechganda, **Qarzdor** tomonidan qilingan har qanday xarajatlar **Kreditor** tomonidan qaytarilmaydi (qoplanmaydi).

4.9. Shartnoma bo‘yicha **Qarzdor** quyidagilar bo‘yicha **Kreditor**ga o‘z roziligini bildiradi:

4.9.1. **Qarzdorning** AT “Aloqabank”da, hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan, bank kartalaridan kredit bo‘yicha talablarni qondirish uchun zarur bo‘lgan mablag‘larni va barcha hisoblangan neustoykalarni akseptsiz tartibda hisobdan chiqarilishiga, yechib olinishiga;

4.9.2. Aloqa vositalaridan foydalangan holda sms/elektron pochta/audio eshittirish/pochta jo‘natish, axborot-kommunikatsiya xizmatlari orqali pochta jo‘natmalarini va bildirishnomalarni jo‘natilishiga;

4.9.3. Davlat personallashtirish markazidan olingan shaxsga doir ma‘lumotlarini qayta ishlashga hamda kredit byurolari, soliq organlari uy-joy kommunal xizmatlari, uyali aloqa operatorlari, protsessing markazlari (Uzcard, Humo va boshqalar) tijorat banklari va boshqa tashqi manbaalardan shaxsga doir ma‘lumotlardan foydalangan holda ma‘lumotlarni olishga.

## V. KREDITNI QAYTARISH TARTIBI

5.1. Kredit va unga hisoblangan foizlarni qaytarish **Qarzdor** tomonidan Shartnomaning ajralmas qismi hisoblangan to‘lov Jadvali (1-ilova)ga asosan, kredit ajratilgan oyning keyingi oyidan boshlab har oyda amalga oshiriladi.

5.2. Kreditning har oydagi to‘lov sanasi haftaning shanba va yakshanba kunlariga, shuningdek dam olish kuni deb e‘lon qilingan bayram kunlariga to‘g‘ri kelganda to‘lov sanasi keyingi ish kuniga ko‘chiriladi.

5.3. Kreditning oxirgi to‘lov sanasi (oxirgi muddati) haftaning shanba va yakshanba kunlariga, shuningdek dam olish kuni deb e‘lon qilingan bayram kunlariga to‘g‘ri kelganda oxirgi to‘lov sanasi oldingi ish kuniga ko‘chiriladi.

5.4. Kredit bo‘yicha qarzdorlikni muddatidan avval qaytarilishiga ruxsat etiladi. Kreditni muddatidan avval qaytarilganligi uchun qo‘shimcha to‘lovlar undirilmaydi.

5.5. Kredit va unga hisoblangan foizlar bo‘yicha qarzdorlikni qaytarish **Qarzdorning** ish haqi, boshqa daromadlari va tushumlaridan mablag‘larni o‘tkazish orqali, naqd pul kirim

qilish orqali, bank kartalaridan mablag'larni o'tkazish orqali, **Qarzdorning** kredit bo'yicha AT "Aloqabank"dagi tranzit hisobvarag'iga o'tkazib berish orqali, avtomatik tarzda bank kartalaridan yechish orqali hamda infokiosklar, mobil ilovalar yoki boshqa elektron to'lov tizimlari yordamida to'lov qilish orqali amalga oshiriladi.

5.6. Kredit bo'yicha qarzdorlikni qaytarish uchun amalga oshirilgan to'lov summasi kredit bo'yicha majburiyatlarni bajarish uchun yetarli bo'lmasa, kelib tushgan mablag' quyidagi keltirilgan ketma-ketlikda qarzdorlik summasini qoplash uchun yo'naltiriladi:

- birinchi navbatda – asosiy qarz bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik va muddati o'tgan foiz to'lovlari mutanosib ravishda;
- ikkinchi navbatda – joriy davr uchun hisoblangan foizlar va joriy davr uchun asosiy qarz bo'yicha qarzdorlik;
- uchinchi navbatda – neustoyka (jarima, penya);
- to'rtinchi navbatda – **Kreditorning** qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari.

5.7. Kredit to'lovi uchun Jadvalda belgilangan sanadan oldin yoki kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorlik summasidan ortiqcha mablag' kelib tushsa, birinchi navbatda muddatli asosiy qarzdan tashqari barcha qarzdorliklar (muddati o'tgan asosiy qarz, muddati o'tgan foiz, neustoyka, jarima, penya, **Kreditorning** qarzdorlikni uzish bilan bog'liq bo'lgan boshqa xarajatlari, joriy davr uchun hisoblangan foizlar, joriy davr uchun asosiy qarz) so'ndiriladi, undan so'ng ortib qolgan mablag'dan nabatdagi to'lov sanasiga qadar hisoblanishi kutilayotgan foiz summasiga teng mablag'ni ushlab qolgan holda ortiqcha qismi kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltiriladi.

5.8. **Qarzdordan** kreditning to'lovi uchun Jadvalda belgilangan summaga nisbatan ko'p mablag' kelib tushsa va kelib tushgan mablag'ning ortiqcha qismi kreditning asosiy qarzini so'ndirishga yo'naltirilganda Jadval qayta rasmiylashtirilmaydi. Bunda, Jadval **Qarzdorning** arizasiga asosan bankning amaldagi tarifidan kelib chiqib, komission to'lov evaziga qayta rasmiylashtirilishi mumkin.

5.9. **Kreditor Qarzdorga** ajratilgan kredit to'lovlarini undirish harakatlarini amalga oshirish jarayonida undiruvni **Qarzdor** nomiga ochilgan har qanday hisobraqamga qaratishi mumkin va bunda **Qarzdorning** roziligi talab qilinmaydi.

5.10. **Qarzdor** mazkur Shartnomani imzolash orqali ajratilgan kredit to'lovlarini undirish harakatlarini amalga oshirish jarayonida **Kreditor** bilan munosabatga kirishgan shaxslarning shaxsga oid ma'lumotlarini qayta ishlash va ulardan foydalanish bilan bog'liq harakatlariga o'z roziligini bildirgan hisoblanadi.

5.11. **Qarzdor** tomonidan kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlar o'z vaqtida qaytarilmaganda **Kreditor** kreditning asosiy qarzi va unga nisbatan hisoblangan foizlarni hamda **Qarzdor** tomonidan majburiyat bajarilmagan yoki lozim darajada bajarilmagan taqdirda undirilishi belgilangan majburiy to'lovlarni qonun hujjatlarida belgilangan tartibda qaytarish choralarini ko'radi.

## VI. HUQUQ VA MAJBURIYATLAR

### 6.1. Kreditorning huquqlari:

Qarzdor \_\_\_\_\_  
(imzo)

- 6.1.1. **Qarzdor** tomonidan kredit bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarilishi to'g'risida ma'lumotlarni Kredit byurolari va Kredit ma'lumotlarining davlat reestriga taqdim etish;
- 6.1.2. Kredit bo'yicha to'lovlar haqida **Qarzdorga** xabar berish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalanish;
- 6.1.3. Shartnoma tuzilgandan so'ng **Qarzdor** va/yoki kafil shaxs(lar) to'lovga layoqatsiz deb topilganda, kreditni ta'minlash bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganda yoki kreditni rasmiylashtirish jarayonida taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda, kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortish;
- 6.1.4. **Qarzdor** Shartnoma tuzilgan kundan boshlab **30 (o'ttiz) kalendar kun** davomida kreditdan umuman foydalanmasa **Qarzdorning** kreditni o'tkazish to'g'risida arizasini ijrosiz qaytarish;
- 6.1.5. Kredit qismlarga bo'lib bosqichma-bosqich ajratilgan hollarda **Qarzdor** kreditdan **1 (bir) yil** ichida to'liq foydalanmasa kreditning foydalanilmay qolgan qismini ajratishni rad qilish;
- 6.1.6. Quyidagi holatlarda **Qarzdordan** kreditni (shu jumladan, hisoblangan foizlarni) muddatidan oldin qaytarishni talab qilish, undirib olish:
- 6.1.6.1. **Qarzdor** tomonidan Shartnoma bo'yicha o'z zimmasiga olgan majburiyatlar bajarilmaganda va/yoki lozim darajada bajarilmaganda;
- 6.1.6.2. Ajratilgan kredit turli sabablarga ko'ra ta'minotsiz bo'lib qolganda;
- 6.1.6.3. **Qarzdor** tomonidan yolg'on ma'lumotlar yoki qalbaki hujjatlar taqdim etilganda;
- 6.1.6.4. **Qarzdor** kreditdan maqsadsiz foydalanganda;
- 6.1.6.5. **Qarzdorga** nisbatan har qanday shaklda jinoyat ishlari yoki fuqarolik ishlari bo'yicha **Qarzdorning** to'lov qobiliyatiga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan da'volar qo'zg'atilgan bo'lsa;
- 6.1.6.6. **Kreditor**da ushbu Shartnoma bo'yicha olingan mablag'lardan foydalanish, tasarruf etishda firibgarlik holatlari bilan bog'liq shubhalar mavjud bo'lganda;
- 6.1.6.7. O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida nazarda tutilgan boshqa hollarda.
- 6.1.7. **Qarzdorning** AT "Aloqabank"da hamda boshqa banklarda ochilgan har qanday hisobvaraqlaridan, shu jumladan, bank kartalaridan kredit bo'yicha talablarni qondirish uchun zarur bo'lgan mablag'larni va barcha hisoblangan neustoykalarini akseptsiz tartibda hisobdan chiqarish (yechib olish);
- 6.1.8. Shartnoma bo'yicha hamma summalarni **Qarzdorning** barcha mol-mulkleri (mulkiy huquqlari), elektron pullari va ta'minotlar hisobidan undirib olish;
- 6.1.9. **Qarzdorning** yashash joyida va/yoki doimiy ro'yxatdan o'tgan joyida kreditning maqsadli ishlatilishi hamda garov mulki holatini o'rganish yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirish;
- 6.1.10. **Qarzdor** tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlarni tekshirish yoki qo'shimcha identifikatsiya (shaxsni tekshirish) jarayonini amalga oshirish uchun Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali **Qarzdor** bilan bog'lanish;

6.1.11. **Qarzdor** bilan telefon raqamlari, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlari orqali bog'lanish va ularni yozib olish, **Qarzdorning Kreditor**ga ma'lum bo'lgan manzillariga (rekvizitlariga) ushbu Shartnoma bo'yicha **Qarzdorning** majburiyatlarini bajarish to'g'risida xatlar, elektron pochta xabarlari va SMS-xabarlarni yuborish;

6.1.12. O'z hisobidan, **Qarzdorni** xabardor qilmasdan, kreditning qaytarilmasligi xavfini sug'urta qilish.

## 6.2. **Kreditorning majburiyatlari:**

6.2.1. Shartnomada belgilangan shartlar va miqdor doirasida **Qarzdorga** kredit mablag'ini naqd pulsiz o'tkazish orqali berish;

6.2.2. **Qarzdorga** kredit hisobvarag'ini ochish;

6.2.3. Kreditni berishdan butunlay yoki qisman bosh tortgan taqdirda, ushbu kredit bo'yicha mablag'lar berishni to'xtatib qo'yish to'g'risida qaror qabul qilingan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmasdan **Qarzdorga** Kredit berish to'xtatilganligi va uning sabablari yuzasidan Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabarnoma yuborish;

6.2.4. Kredit muddatidan oldin undiriladigan hollarda bu to'g'risida **Qarzdorni** Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallaridan foydalangan holda xabardor qilish;

6.2.5. **Kreditor** tomonidan kredit bo'yicha muddati o'tgan qarzdorliklarni so'ndirish uchun **Qarzdorning** bank hisobvarag'i va (yoki) omonatidan (shu jumladan, bank kartalaridan) mablag'lar **Qarzdorning** topshirig'isiz hisobdan chiqarilganda, ushbu mablag' hisobdan chiqarilgan sanadan boshlab keyingi ish kunidan kechiktirmagan holda **Qarzdorga** uning hisobvarag'idan qancha miqdordagi mablag' qanday sabablarga asosan va kimning foydasiga chiqarilganligini ko'rsatgan holda Shartnomada ko'rsatilgan aloqa kanallari orqali xabarnoma (ma'lumotnoma) yuborish.

## 6.3. **Qarzdorning huquqlari:**

6.3.1. Shartnomada ko'rsatilgan shartlarda kredit berilishini talab qilish;

6.3.2. Shartnoma tuzilgan vaqtdan boshlab pul mablag'lari ajratilgunga (o'tkazib berilgunga) qadar kreditni olishdan bepul voz kechish;

6.3.3. Kreditni istalgan vaqtda muddatidan oldin jarima sanksiyalarisiz so'ndirish;

6.3.4. Kredit bo'yicha asosiy qarz va unga hisoblangan foizlarni **Kreditor**ga to'liq qaytarilgan holda ushbu Shartnomani muddatidan avval bekor qilish.

## 6.4. **Qarzdorning majburiyatlari:**

6.4.1. Kredit va u bo'yicha hisoblangan foizlarni Jadvalga asosan o'z vaqtida to'lash;

6.4.2. Olingan kreditni, kreditdan foydalanganlik uchun hisoblangan foizlarni va boshqa to'lovlarni mazkur Shartnoma shartlariga muvofiq muddatidan oldin to'lash to'g'risidagi **Kreditorning** so'rovini olgandan keyin 3 (uch) ish kuni ichida to'lab berish;

6.4.3. Familiyasi yoki ismi, telefon raqami, ro'yxatdan o'tgan manzili, yashash joyi, pasport ma'lumotlari o'zgarganda va Shartnoma bo'yicha majburiyatlarning bajarilishiga ta'sir qiladigan boshqa holatlar haqida 3 (uch) ish kuni ichida Shartnomada belgilangan aloqa kanallari orqali **Kreditor**ga xabar berish;

6.4.4. O'ziga nisbatan huquqni muhofaza qilish organlari, nazorat qiluvchi organlar yoxud sudlar tomonidan qo'llanilgan yoki qo'llanilayotgan huquqiy ta'sir choralari, iqtisodiy,

moliyaviy jarimalar va iqtisodiy, moliyaviy sanksiyalar to'g'risida unga ma'lum bo'lgan kundan boshlab **Kreditor**ga 2 (ikki) ish kuni ichida xabar berish;

6.4.5. O'zbekiston Respublikasi hududidan tashqariga doimiy yashash uchun chiqib ketayotgan holda kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlarni muddatidan avval qaytarish;

6.4.6. Bank xodimlariga kreditning maqsadli ishlatilishi va garov mulki holatini o'rganish bo'yicha monitoring o'tkazilishida sharoit yaratib berish.

## VII. TA'MINOT

7.1. **Qarzdor** Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlari bajarilishining ta'minoti sifatida quyidagilarni taqdim etadi:

---

*(kredit ta'minoti nomi)*

---

7.2. Ta'minot mol-mulk garovi bo'lganda **Qarzdor** garov obyektini **Kreditor** foydasiga yong'in, zilzila, yo'l transport hodisasi va boshqa sug'urta hodisalaridan kredit muddatiga mos ravishda sug'urtalaydi (birlamchi uy-joy bozoridan kredit hisobiga sotib olinayotgan kvartiralar bundan mustasno).

7.3. **Qarzdor** Garov obyektini sug'urtalaganidan so'ng sug'urta polisini **Kreditor**ga 1 (bir) ish kuni ichida taqdim etishi shart (kredit ta'minotiga birlamchi uy-joy bozoridan kredit hisobiga sotib olinayotgan kvartiralar taqdim etilgan holatlar bundan mustasno).

7.4. Agar ta'minotga omonat garovi qabul qilingan bo'lsa hamda **Qarzdor** Shartnoma bo'yicha majburiyatlarini bajarilishini ta'minoti sifatida taqdim qilingan omonat mablag'i aslida ushbu pul mablag'larining egasi boshqa shaxs ekanligi (FKning 228-moddasi) asosida yoki jinoyat yoxud boshqa huquqbuzarlik sodir etganlik uchun (FKning 204-moddasi) garovga qo'yuvchidan qonunda belgilangan tartibda olib qo'yilgan hollarda **Qarzdor** tomonidan o'z majburiyatini bajarilishini ta'minoti sifatida garov tariqasida 10 (o'n) ish kuni ichida boshqa mol-mulk taqdim etiladi yoki ushbu omonat summasi miqdorida kredit summasi so'ndiriladi.

7.5. **Kreditor**ning Shartnoma bo'yicha kredit ajratish majburiyati kredit qaytarilishining ta'minlanishini belgilovchi hujjat belgilangan tartibda to'liq rasmiylashtirilganidan va u **Kreditor** tomonidan qabul qilib olingandan so'ng kuchga kiradi.

7.6. **Qarzdor**ning kredit bo'yicha moddiy javobgarligi 7.1-bandida ko'rsatilgan ta'minot bilan cheklanmaydi.

7.7. **Qarzdor** Shartnomada ko'rsatilgan majburiyatlarning bajarilishi ta'minotini taqdim etmaguncha **Kreditor** kredit hisobvarag'i ochmasligi yoki kredit bo'yicha pul o'tkazish to'g'risidagi to'lov hujjatlarini (arizani) ijroga qabul qilmasligi, qabul qilingan to'lov hujjatlarini (arizalarni) ijrosiz qaytarishi mumkin.

7.8. Shartnomaning 7.1-bandida kredit hisobiga sotib olinadigan mulk (kredit obyektini) ushbu kredit bo'yicha garovga taqdim qilish sharti qo'llanilganda mazkur mulk (kredit obyektini) **Qarzdor** tomonidan qabul qilib olinganidan so'ng **10 (o'n)** ish kunidan kechiktirmasdan garov obyektini sifatida **Kreditor**ga garovga taqdim etiladi.

7.9. Kredit ta'minoti hujjatlarini rasmiylashtirish bilan bog'liq bo'lgan xarajatlar,

Qarzdor \_\_\_\_\_  
(imzo)

shuningdek garov (ipoteka) shartnomasini notarial tasdiqlash, davlat ro'yxatidan o'tkazish, ipoteka to'g'risidagi qayd yozuviga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish bilan bog'liq xarajatlarni **Qarzdor** to'laydi.

7.10. **Qarzdor** ta'minotga taqdim etilgan obyektlarni (mol-mulkni, mulkiy huquqlarni, huquqlarni) kredit va uning foizlari to'liq to'languncha **Kreditorning** roziligisiz sotishga yoki boshqacha tarzda realizatsiya qilishga haqli emas.

7.11. Kredit ta'minoti sifatida garovga qo'yilgan mulkka shikast yetkazilganda yoki turli sabablarga ko'ra yaroqsiz holga kelib qolganda **Qarzdor 10 (o'n) ish kuni** ichida kredit ta'minotiga qo'shimcha ravishda likvidli mol-mulk, kafillik yoki qonunchilikda belgilangan boshqa ta'minot turini taqdim etadi.

7.12. Kredit ta'minoti sifatida kafilligi qabul qilingan jismoniy yoki yuridik shaxslar to'lov qobiliyatini yo'qotgan hollarda (masalan: ishsiz qolganda, vafot etganda, turli sabablarga ko'ra mehnatga yaroqsiz bo'lib qolganda, bankrot bo'lganda, faoliyatini to'xtatganda va boshqalar) **Qarzdor 10 (o'n) ish kuni** ichida kredit ta'minotiga qo'shimcha ravishda likvidli mol-mulk, kafillik yoki qonunchilikda belgilangan boshqa ta'minot turini taqdim etadi.

7.13. Kredit muddati tugamasidan oldin kredit ta'minoti sifatida kafilligi qabul qilingan jismoniy va/yoki yuridik shaxsning kafilliklari almashtiriladigan bo'lsa, bosh bank mas'ul departamenti xulosasi asosida ruxsat beriladi.

## VIII. MONITORING

8.1. **Kreditor** bevosita **Qarzdorning** yashash joyida yoki doimiy ro'yxatdan o'tgan manzilida yoki kredit obyekti joylashgan manzilda kreditning maqsadli ishlatilishini hamda garov obyekti joylashgan manzilda garov mulki holatini o'rganish yuzasidan tekshirishlarni amalga oshirishi mumkin.

8.2. Kredit ajratilganidan so'ng 30 (o'ttiz) kundan oshmagan muddatda **Qarzdor** kreditning maqsadli ishlatilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni (hisob-faktura, bajarilgan ish hujjatlari yoki kredit obyektining **Qarzdor** tomonidan qabul qilib olinganligini tasdiqlovchi boshqa tasdiqlovchi hujjatlar) **Kreditor**ga taqdim etadi.

8.3. Quyidagi hollarda kredit maqsadsiz sarflangan yoki maqsadsiz foydalanilgan deb hisoblaniladi:

8.3.1. Kredit mablag'i hisobiga sotib olinishi lozim bo'lgan kredit obyekti oldi-sotdi shartnomasida belgilangan muddatda **Qarzdor** tomonidan qabul qilib olinmaganda (**Qarzdor**ga yetkazib berilmaganda);

8.3.2. **Qarzdor** kredit ajratilganidan so'ng bank xodimlariga kredit monitoringini o'tkazilishida to'sqinlik qilsa yoki sharoit yaratib bermasa;

8.3.3. Qarzdor tomonidan Shartnomaning 8.2-bandiga muvofiq tegishli hujjatlar belgilangan muddatda **Kreditor**ga taqdim etilmasa;

8.3.4. **Qarzdor** tomonidan **Kreditor**ga taqdim etilgan ma'lumotlarning haqqoniy emasligi aniqlanganda;

8.3.5. O'tkaziladigan monitoring natijalariga ko'ra kredit maqsadsiz sarflangan yoki maqsadsiz foydalanilgan deb topilsa;



8.3.6. Kredit hisobiga sotib olingan yoki kredit ta'minoti sifatida garovda turgan mulkni **Kreditorning** yozma rozilgisiz sotilishi, xadya qilinishi, almashtirilishi yoki boshqa yo'l bilan chetlatilishiga yo'l qo'yilgan bo'lsa.

8.4. **Kreditor** Shartnoma bo'yicha zarur bo'lgan hujjatlarni **Qarzdordan** so'rab olishi va ushbu hujjatlar to'liq taqdim qilinmaganda kredit mablag'larini ajratishni to'xtatib turishi mumkin.

8.5. **Qarzdor** yoki unga kafil bo'layotgan jismoniy shaxslarning daromad manbalariga nisbatan shubha uyg'onganida yoki kreditni qaytarilishi muammoga aylanganida bank vakillari **Qarzdor** yoki unga kafil bo'lgan jismoniy shaxslarning ish joylariga borib yoki boshqa usullar orqali ularning haqiqatan ishlayotganligi va oylik daromadlari to'g'risida ish joyidan tasdiqlangan ma'lumotnoma olishi yoxud kafil yuridik shaxs bo'lganda uning moliyaviy holatini monitoring qilishi mumkin.

## IX. JAVOBGARLIK

9.1. **Qarzdor** Shartnomaga asosan kreditning asosiy qismini qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirgan taqdirda kreditning muddati o'tgan asosiy qismiga har bir kechiktirilgan kun uchun Shartnomaning 3.5-bandidagi foiz stavkasining \_\_\_\_\_  
(miqdori)

**barobari** miqdoridagi (biroq, 50 foizdan oshmagan) yillik stavkada hisoblanadigan, ammo kechiktirilgan to'lov summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

9.2. **Qarzdor** Shartnomaga asosan hisoblangan foizlarni qaytarish bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni kechiktirgan taqdirda har bir kechiktirilgan kun uchun kechiktirilgan to'lov summasining \_\_\_\_\_ foizi miqdorida, ammo kechiktirilgan to'lov  
(miqdori)

summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

9.3. Shartnomaning 7.8-bandiga ko'ra **Qarzdor** mulkni qabul qilib olgandan so'ng 10 (o'n kun) ish kun ichida garovga taqdim etmagan taqdirda, har bir kechiktirilgan kun uchun kredit summasining 0,02 foizi miqdorida, biroq kredit summasining 50 foizidan ortiq bo'lmagan miqdorda penya to'laydi.

9.4. Shartnomaning 9.1 va 9.2-bandlarida ko'rsatilgan penyalar **Qarzdorning** barcha hisobvaraqlaridan memorial order (tegishli hollarda to'lov talabnomasi) orqali akseptsiz tarzda undirib olinadi.

9.5. **Qarzdor** Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmagan yoki lozim darajada bajarmagan taqdirda neustoykadan tashqari yetkazilgan zararni to'liq miqdorda to'laydi.

9.6. **Kreditor** kredit berish majburiyatini bajarmaganda yoki o'z vaqtida bajarmaganda **Qarzdor** oldida qonunchilikda belgilangan tartibda javob beradi.

9.7. **Tarafklar** Shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarmaganligi yoki lozim darajada bajarmaganligi natijasida yetkazilgan zararni qoplash yoki majburiyatni bajarmagan yoki lozim darajada bajarmaganligi uchun hisoblangan neustoykani to'lash majburiyatni asl holida bajarishdan ozod qilmaydi.

9.8. **Qarzdor** kreditdan maqsadsiz foydalanganda **Kreditorga** maqsadsiz ishlatilgan kredit summasining 10 (o'n) foizi miqdorida jarima to'laydi.

Qarzdor \_\_\_\_\_  
(imzo)

9.9. **Qarzdorning** telefon raqami o'zgarganligi, ishlamaganligi yoki yangi raqamini **Kreditor**ga taqdim qilmaganligi sababli **Qarzdorga** SMS xabarlar bormaganligi uchun **Kreditor** javobgar hisoblanmaydi.

## **X. ANTIKORRUPSIYAGA OID SHARTLAR**

10.1. **Taraflar**, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu Shartnoma shartlarini bajarishda ikkinchi tomonning qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari qimmatliklar yoki xizmatlar taklif qilishi, berishi, taqdim etishi ta'qiqlanadi.

10.2. **Taraflar**, ularning affillangan shaxslari, xodimlari yoki boshqa ishtirokchilari ushbu Shartnoma shartlarini bajarishda qaror qabul qilishiga ta'sir o'tkazish maqsadida shartnomaning boshqa ishtirokchilari tomonidan bevosita yoki bilvosita pul mablag'lari, qimmatliklar yoki xizmatlar taqdim etish bo'yicha taklifini rad qilishi lozim.

10.3. Agar Shartnoma **Taraflarida** ushbu shartnoma shartlarini bajarish bilan bog'liq korrupsion harakat sodir etilganligi to'g'risida ma'lumot, shubha, shubhaga asos bo'luvchi dalillar bo'lsa, bu to'g'risida ikkinchi **Tarafga** bunday harakat sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma shaklda (Bankning Komplayens nazorat boshqarmasi rahbariga yoki Hududiy kompleks xizmatlar ko'rsatish markazi direktoriga aloqa kanallari yordamida) xabar berish majburiyatini oladi.

10.4. Xabarni olgan **Taraf** haqiqatan korrupsion harakat sodir etilmaganligini yoki sodir etilmasligi to'g'risida tasdiqqa ega bo'lguncha ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishni to'xtatib turish huquqiga ega.

10.5. Ushbu bo'lim qoidalari **Taraflardan** biri tomonidan buzilganligi fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa **Taraf** qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa **Taraf** Shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

10.6. Pora berish evaziga ikkinchi **Taraf** vakilini, affillangan shaxsini, xodimini Shartnoma shartlarini bajarishda o'ziga og'dirib olgan **Taraf** ikkinchi **Tarafga** yetkazilgan zararni qoplab berish majburiyatini oladi.

## **XI. YAKUNIY SHARTLAR**

11.1. Shartnoma **Taraflar** imzolagan kundan kuchga kiradi va **Taraflar** shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini to'liq bajargunlaricha amalda bo'ladi.

11.2. Shartnoma shartlari bilan tartibga solinmagan holatlar O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi asosida tartibga solinadi.

11.3. Shartnoma asosida va uning yuzasidan **Taraflar** o'rtasida vujudga kelgan har qanday nizo va kelishmovchiliklar, **Taraflar** tomonidan muzokaralar yo'li bilan hal etiladi.

11.4. Vujudga kelgan nizo va kelishmovchiliklarni muzokaralar yo'li bilan hal etib bo'lmaganda, **Taraflar** ushbu nizolarni sud tartibida hal etadilar.

11.5. **Qarzdor** har qanday xat-xabarlarini yozma shaklda pochta orqali buyurtmali (olinganligini tasdiqlovchi) xat bilan yuborishi lozim.

11.6. **Kreditor** tomonidan **Qarzdorga** yuboriladigan xat-xabarlar quyidagi aloqa kanallari orqali amalga oshirilishi mumkin: **Qarzdorning Kreditor**ga ma'lum bo'lgan

manzillariga (rekvizitlariga) yozma shaklda jo'natish yoki **Qarzdorning** elektron pochtaga, telefon raqamlariga, ijtimoiy tarmoqlardagi akkauntlariga xabar jo'natish yoki masofaviy xizmat ko'rsatish tizimlari orqali elektron xabar jo'natish.

11.7. **Qarzdor** amalga oshirilgan to'lovlar va kredit qarzdorligi miqdori (asosiy qarz, foiz, penya qarzdorligi va muddati o'tgan qarzdorliklar) haqida, shuningdek mazkur Shartnoma bilan bog'liq boshqa holatlar bo'yicha uyali aloqa vositalari orqali SMS xabarnomalar yuborilishiga **Kreditorga** o'z roziligini bildiradi.

11.8. Shartnoma bir xil kuchga ega bo'lgan ikki nusxada yozma shaklda tuzilib, ularning har biri **Taraflar** tomonidan imzolangan holda saqlanadi.

## XII. TARAFLARNING YURIDIK MANZILLARI VA BANK REKVIZITLARI

"KREDITOR"	"QARZDOR"
<p style="text-align: center;">AT "Aloqabank"</p> <p>Manzil: _____ <i>(manzili)</i></p> <p>H/v: _____</p> <p>MFO: _____</p> <p>STIR: _____</p> <p>Tel.: _____</p> <p>AT "Aloqabank" _____ direktori <i>(HKXKM/KXKM)</i></p> <p style="text-align: center;">_____</p> <p style="text-align: center;"><i>(F.I.Sh.)</i></p> <p style="text-align: center;">_____</p> <p style="text-align: center;"><i>(imzo)</i></p> <p>M.O'.</p>	<p style="text-align: center;">_____</p> <p style="text-align: center;"><i>(F.I.Sh.)</i></p> <p>Pasport ma'lumotlari: _____ tomonidan <i>(kim tomonidan berilgan)</i> _____ -yilda berilgan <i>(sana)</i> _____ raqamli pasportga <i>(seriyasi) (raqami)</i> asosan "____" _____ -yilda tug'ilgan. <i>(sana)</i></p> <p>JShShIR: _____</p> <p>Ro'yxatdan o'tgan manzili: _____.</p> <p>Yashash manzili: _____.</p> <p style="text-align: center;">_____</p> <p style="text-align: center;"><i>(imzo)</i></p> <p>Tel.uy:(____) _____</p> <p>Mob. tel.:(____) _____</p> <p>Ish joyi tel.: (____) _____</p>

**KREDITNI QAYTARISH GRAFIGI (Namuna)**

Men, \_\_\_\_\_ o‘z zimmamga \_\_\_\_\_-yildagi \_\_\_\_\_-sonli  
 (F.I.SH.) (Shartnoma sanasi) (raqami)  
 Kredit shartnomasiga asosan har oyning \_\_\_\_\_ sanasidan kechiktirmasdan,  
 (to‘lov sanasi)  
 olingan kreditning asosiy qarzi va unga hisoblangan foizlarni ushbu kreditni qaytarish  
 jadvali asosida to‘lab boraman.

**Ushbu kreditni qaytarish jadvali kredit shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi.**

Kredit summasi 250 000 000 UZS  
 Kredit yillik foizi 18,0%  
 Kredit muddati (oy) 48  
 Imtiyozli davr (oy) 5

MFO: 00401
29801 hisobvarag‘i: 29801000*****
To‘lov ID kodi: xxxxxxxxxxxx

№	To‘lov sanasi	Kredit qoldig‘i summasi	Asosiy qarzni qaytarish	Kredit foizi	Bir oylik jami to‘lov
				18,00%	
1	12.02.2024	250 000 000,00	0,00	1 849 315,07	1 849 315,07
2	11.03.2024	250 000 000,00	0,00	3 575 342,47	3 575 342,47
3	10.04.2024	250 000 000,00	0,00	3 821 917,81	3 821 917,81
4	10.05.2024	250 000 000,00	0,00	3 698 630,14	3 698 630,14
5	10.06.2024	250 000 000,00	0,00	3 821 917,81	3 821 917,81
6	10.07.2024	250 000 000,00	1 063 829,79	3 698 630,14	4 762 459,92
7	12.08.2024	248 936 170,21	1 063 829,79	3 805 654,33	4 869 484,12
...	...	...	...	...	...
...	...	...	...	...	...
...	...	...	...	...	...
47	10.12.2043	2 127 659,57	1 063 829,79	31 477,70	1 095 307,49
48	26.01.2044	1 063 829,79	1 063 829,79	24 657,53	1 088 487,32
	<b>JAMI:</b>		<b>250 000 000,0</b>	<b>459 561 877,0</b>	<b>709 561 877,0</b>

“QARZDOR”

\_\_\_\_\_  
 (F.I.Sh.)  
 \_\_\_\_\_  
 (imzo)

“KREDITOR”

AT “Aloqabank”

AT “Aloqabank” \_\_\_\_\_ direktori  
 (HKXKM/KXKM)

\_\_\_\_\_  
 (F.I.Sh.)  
 \_\_\_\_\_  
 (imzo)

M.O‘

**Kredit inspektori**

\_\_\_\_\_  
 (F.I.Sh.)  
 \_\_\_\_\_  
 (imzo)